



Development of creativity of primary school students based on new generation textbooks

Kamola NURALIYEVA¹

Namangan State Pedagogy Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

15 September 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

15 October 2024

Keywords:

education,
innovation,
4K model,
cooperation,
creativity,
critical thinking,
communication,
integration.

ABSTRACT

This article, based on the 4K model, highlights the vital skills that need to be developed in primary school students in the 21st century. It also offers recommendations for effectively organizing lessons using an integrated approach. In these integrated lessons, students are shown methods for quickly and easily mastering the topics being taught.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss9/S-pp103-107>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yangi avlod darsliklari asosida ijodkorligini rivojlantirish

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ta'lim,
innovatsiya,
4K modeli,
kooperatsiya,
kreativlik,
tanqidiy fikrlash,
kommunikatsiya,
integratsiya.

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K modeli asosida XXI asrda rivojlantirish zarur bo'lgan hayotiy, zaruriy ko'nikmalar yoritilib berilgan. Shuningdek, maqolada integratsiyalashgan yondashuv asosida darslarni samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Integratsiyalashgan usulda tashkil etilgan darslarda o'quvchilar o'tilayotgan mavzularni tez va oson o'zlashtirish yo'llari ko'rsatilgan.

¹ Teacher, Namangan State Pedagogy Institute. E-mail: knuraliyeva4980@gmail.com

Развитие творческих способностей учащихся начальных классов на основе учебников нового поколения

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

образование,
инновации,
модель 4К,
сотрудничество,
творчество,
критическое мышление,
коммуникация,
интеграция.

В данной статье, на основе модели 4К, выделены жизненно важные и необходимые навыки, которые необходимо развивать у учащихся начальных классов в XXI веке. Также представлены рекомендации по эффективной организации занятий с использованием комплексного подхода. На комплексно организованных уроках учащимся демонстрируются методы быстрого и легкого усвоения изучаемых тем.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan Milliy o'quv dasturi har bir sinf bosqichi yakunida o'quvchilardan kutilayotgan natijalar va bir sinfdan keyingi sinfga o'tish va o'quvchi nimaga erishishi kerakligi va baholash jarayonini tushuntirish bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatadigan hujjatdir. Milliy o'quv dasturida quyidagilar yetakchi o'rinni egallaydi: izchillik, uzviylik, uzluksizlik, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, fan va ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish, xalqaro ta'limning bugungi holatini hisobga olgan holda ta'lim mazmunini jahon standartlariga moslashtirish, fan va ta'lim integratsiyasini ta'minlash.

ASOSIY QISM

Hozirgi kunda turli jabhalarda o'zgarishlar ro'y bermoqda. Xususan, ta'lim sifatini tubdan oshirish maqsadida o'qituvchilar uchun o'quv dasturlari, uslubiy qo'llanmalar ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirilib, boshlang'ich sinflarda davlat ta'lim standarti o'rniga ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan, bolaga ortiqcha yuklama belgilamaydigan "Milliy o'quv dasturi" joriy etildi.

Jamiyat taraqqiyoti uchun ilg'or fikrlaydigan, qat'iyatli, maqsad sari intiluvchan, mustaqil qarorlar qabul qiladigan, muammolarni ijobiy hal eta oladigan shaxslar zarur. Bunday shaxslar iqtisodiyotni rivojlantirishi, jamiyatni boshqarishi va turmushni farovonlashtirishlari mumkin. Milliy o'quv dasturida XXI asr ko'nikmalarini o'quvchilarga singdirish orqali ana shunday shaxslarni tarbiyalashga harakat qilinmoqda.

Ma'lumki, xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq, ilg'or xorijiy tajribalar asosida 1–4-sinf darsliklari "4K" modeli asosida yangidan tayyorlandi. "4K" modelidan foydalanish ko'plab sinovlardan muvaffaqiyatli o'tdi. Ushbu zamonaviy yondashuv Singapur, Xitoy, Angliya, Finlyandiya, Estoniya kabi ilg'or ta'limga ega mamlakatlarda muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Shuningdek, PISA va PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan mamlakatlar ta'lim sohasida "4K" modeli o'z ichiga olgan kommunikatsiya, kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya kabi ko'nikmalarga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda yuksak natijalarga erishmoqda.

Boshlang'ich ta'lim jarayonidagi bunday o'zgarishlar darslarning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Maktablarda ta'lim sifati ko'p jihatdan yaratilayotgan darsliklarga bog'liqdir. Ya'ni, ta'lim standartlariga javob berishi, o'quvchini qiziqtirishi,

fanga mehrini uyg'otishi kerak. Shuningdek, darsliklardagi har bir mavzu integratsiya asosida tashkil etilgan bo'lib, o'quvchining dunyoqarashini, tasavvur olamini, tanqidiy fikrlashini, ijodkorligini va kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgandir. Darslikdagi har bir mavzuda ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan rasmlar, savollar, topshiriqlar, metodikalar va mashqlar mavjud. Bularning barchasi o'quvchilarning aqliy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflar uchun 4K modeli asosida yangi darsliklar ishlab chiqilganligi katta muvaffaqiyatdir. Qolaversa, yangi baholash tizimi joriy etildi. U nafaqat ma'lumotni eslab qolishga balki 4K ko'nikmalarini rivojlantirishga ham qaratilgan. Bu yangi innovatsion yondashuvni o'quvchilarning dunyoqarashida, mustaqil fikrlashida, erkin tarzda fikrlarini bayon qilishida va ijodkorligida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchilarida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi lozim. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu ko'nikmalarni o'quvchilarda rivojlantirishdir. Hamda ta'limning asosiy maqsadi-o'quvchilarga bilim berish bilan chegaralanib qolmasdan, balki olgan bilimlarini hayotda, amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat. 4K modelidan foydalangan holda ta'lim olayotgan o'quvchilar o'rganishga ko'proq ishtiyoqmand bo'lishadi va maktabga borishdan zavqlanishadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 4K modelidan foydalangan holda o'rgangan o'quvchilar fanlarda yaxshi natijalarga erishadilar. 4K modeli orqali o'rgangan o'quvchilar tanqidiy fikrlash, muloqot, ijodkorlik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Ushbu metodologiya bolalarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, 4K modeli o'z tarkibiga 4 ta ko'nikmani qamrab olgan:

Kollaboratsiya: darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kommunikativlik: o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Kreativlik: o'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtai nazarini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinflarda ushbu 4ta ko'nikmalarni rivojlantirishda ta'lim muhitining holati, o'quv jarayonini tashkil etish usullari, kasbiy ko'nikmalarni o'rgatish, o'qitish texnologiyalari va usullari, o'quvchilar bilan o'zaro munosabat shakllariga e'tibor qaratilgan.

Darsliklarni yaratishda bolalarning psixologik holati ham hisobga olingan. O'quvchilarning ijodkorlik va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun turli xil rang-barang rasm va illyustratsiyalardan unumli foydalanilgan. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola ma'lumotni matndan ko'ra tasvirlar orqali tezroq o'zlashtiradi. Shuning uchun yangi darsliklar yaratishda matnlar bilan bir qatorda rasmlarga ham alohida e'tibor berilgan. Yangi darsliklarda oltita grafik qahramonlar mavjud. Dars davomida ular o'quvchilar bilan g'oyibona suhbatlashadi, savol-javob qiladi, turli topshiriqlar beradi.

O'qituvchining asosiy quroli darslikdir. Amaldagi darsliklar eng yangi ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida yaratildi. Agar alifbe kitobini misol keltiriladigan bo'lsa, mashq kitobi unga moslashtirilgan ya'ni bir-biriga paralleldir. Mashq faqat daftarga yozishdan iborat emas, o'quvchilar mantiqiy fikrlashni ham o'rganadilar: yetishmayotgan harflarni, so'zlarni topadilar, rasmlar asosida gaplar tuzadilar. Alifbo davridan ijodiy fikrlash va fikrlarni ifodalashga moslashadilar. Ijodiy ish yozishda 3D rasmlar berilgan. Ular asosida bola o'z fikrlarini tasvirlashi mumkin. Umuman olganda darsliklar bola tushunadigan kreativ yondashgan holda yaratilgan. 1-sinfda o'tilgan mavzular keyingi sinflarda takrorlanib boradi. Bu mavzular haqidagi ma'lumotlar kengayib, ilmiy jihatdan boyitilib boraveradi.

Bu darsliklarning yana bir yangiligi shundaki, masalan, matematika darsliklarida tanqidiy va mantiqiy fikrlashga undaydigan va o'quvchilarning o'z ustida muntazam ishlashiga qaratilgan misol-masalalar, topshiriqlar berilgan. Darslikda asosiy mavzudan tashqari yondosh mavzudan ham foydalaniladi. Agar o'lchovlar haqida gapiriladigan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududi, viloyatlari, daryolar soni kabi ma'lumotlar yondosh mavzu sifatida berilgan. Bu holat bevosita fanlar o'rtasida integratsiyani yuzaga keltiradi. Yangi avlod darsliklarida barcha fanlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ya'ni bir-birini to'ldiradi.

Boshlang'ich sinflarda fanlarni integratsiyalashgan holda o'qitish dars samaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalaniladi, darsni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi, bo'sh vaqtni ko'paytiradi va yangidan yangi bilimlarni egallashga zamin yaratadi. Boshlang'ich ta'limda ona tili, o'qish savodxonligi, tabiiy fanlar integratsiyasini misol keltirish mumkin. Masalan, 3-sinfda 1-mavzu vatan haqida bo'lib, o'qish savodxonligi, tabiiy fanlar, ona tili, matematika darsliklarida ham shu mavzu berilgan. Masalan, o'qish savodxonligi kitobida 1-mavzu "Vatan madhi dillarda" deb berilgan. Vatan haqida matn va unga oid lug'at so'zlar, turli topshiriqlar berilgan. Ona tili kitobida asosiy mavzu "Nutq" bo'lib, mavzuga doir barcha mashqlarda esa vatan, davlat ramzlari, vatanimiz allomalari berilgan. Matematika darsligida asosiy mavzu "1 dan 100 gacha bo'lgan sonlar" yondosh mavzu esa "O'zbekiston Respublikasi", mavzuga oid masala, misol, diagramma va jadvallarda mamlakat shaharlari, daryolari, tabiati, viloyatlarning umumiy maydonlariga doir topshiriqlar berilgan. Tabiiy fanlar darsligining mavzusi "Yozni eslab" bo'lib, undagi savollar, topshiriqlar, rasmlarda yurtning so'lim joylari, O'zbekiston cho'llari va xaritasi tasvirlangan. Bu esa bolalarga mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Uni kengroq va chuqurroq o'zlashtirishga imkon yaratadi. Hamda uzoq vaqt eslab qolishga yordam beradi. Bu dars samaradorligini oshiradi.

XULOSA

Integratsiya fanlararo va mavzulararo bog'liqlikni amalga oshirib, darslarni qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Chuqur tahlil qilishni talab qiladi, hodisalarni umumlashtiradi, o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi. O'z navbatida integratsion dars o'qituvchidan qo'shimcha tayyorgarlik, katta bilim, yuksak kasb mahoratini talab qiladi. Integratsion darsning asosiy xususiyati shundan iboratki, bunday dars bir mavzuga asoslangan bo'lib, u asosiy yo'nalish hisoblanadi, qolganlari u bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'rganishdagi jarayonlar, o'quv predmeti mazmunini tushunish, uning mazmunini anglashda hayot bilan munosabatda bo'lish, olingan bilimlarni amalda qo'llashda o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXAT:

1. Бацунов С.Н., Дереча И.И., Кунгурова И.М., Слизкова Е.В. Modern Determinants of Development soft skills // Концепт. 2023. No 4. С. 198-207. DOI 10.24422/MCITO.2018.4.12 367. (in Russ.).
2. Tojiyev B.B. (2024), Boshlang'ich sinfo'quvchilarida 4K ko'nikmalarini shakllantirish. ISSN: 2181-4066 DOI Journal 10.56017/2181-4066
3. Umarov B. Educational Development And "Future Skills". The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2021/1, p. 78